

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**5A110801-Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati
magistratura mutaxassisliklariga kirivchilar uchun maxsus
(ixtisoslik) fanlaridan**

D A S T U R

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Magistratura mutaxassisligi: 5A110801-Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati

Chirchiq- 2021

Tuzuvchilar: Baymetov B.B - TV ChDPI Tasviriy san'at kafedrasi

professori, p.f.n.

Muratov X.X - TV ChDPI Tasviriy san'at kafedrasida dotsent v.b.,

- Taqrizchilar:** Sultanov X.E - TV ChDPI Tasviriy san'at kafedrasasi mudiri, dotsent.
- Xalilov R.Sh - Nizomiy nomidagi TDPU Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent.

Sport va Chaqiriqqacha harbiy ta`lim fakultetining 2021 yil 28 iyundagi № 11 sonli Kengashi yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

«Tasviriy san'at» kafedrasiniнг 2021 yil 9 - июндаги № 11-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kirish

Mazkur dastur 5A110801-Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi buyicha magistraturaga kiruvchilarining tasviriy san'at va amaliy bezak san'atining nazariy asoslari va fan haqidagi falsafiy yondashuv asosida bilish haqidagi nazariyalar, umumiy ilmiy uslublar, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha layoqatlarini aniqlashga mo'ljallangan.

Magistraturaga kiruvchilarning bakalavrit bosqichida tasviriy san'at va amaliy bezak san'atini o'qitishning ilmiy-metodik muammolarini tadqiqot qilishda zarur bo'ladigan ilmiy-bilish nazariyasi, tasviriy san'at va amaliy bezak san'atini o'rganish va anglash tamoyillari, uslublari o'zlashtirilganligini aniqlash. Shuningdek, magistraturaga kiruvchilarni falsafiy yondashuv asosida bilish haqidagi nazariyalar, umumiy ilmiy uslublar, tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati fanining nazariy asoslari, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uslublari va tamoyillari o'zlashtirilganlik va amalda qo'llay olish malakalari darajasini aniqlash.

Dasturning vazifalari:

- tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati fanining tadqiqot uslublari bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar bilan tanishganlik darajasini;
- tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati va uni o'qitish metodikasini tadqiq qilishning ilmiy yo'nalishlari bilishi darajasini;
- tasviriy san'at tur, janr va oqimlar tog'risida nazriy va aamliy ma'lumotga ega ekanligini;
- tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati fani va tadqiqotlar sohasining ilmiy yo'nalishlari, tadqiqotlar sohasida ilmiy mushohada va ilmiy tahlil masalalarini o'zlashtira olganliklarini;
- mashhur rassomlarning hayoti va ijodiy faoliyatlaridan habardorligini;
- amaliy bezak san'ati, unda ijod qilgan xal ustalari, ularning asarlarini taxlil qila olish va fanlaridan nazariy va amaliy bilim-ko'nikmalarga ega ekanligini aniqlashdan iborat.

Dasturning asosiy mazmuni

Mazkur dasturning asosiy mazmuni 5A110801-Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga qabul jarayonida o'tkaziladigan mutaxassislik bo'yicha yozma imtihonda magistraturaga kiruvchilarning bakalavr ta'lim bosqichida olgan bilimlariga hamda fanlar bo'yicha mustaqil ta'limga tayyoragarlik jarayonlarida, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi bajarish jarayonida shakllantirilgan ilmiy adabiyotlar bilan ishslash, ilmiy mushohada qila olish va yangi g'oyalarni shakllantira olish qobiliyati, ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish mazmuni bilan tanishganligi, tadqiqot natijalarini tahlil qila olish qobiliyatining mavjudligi, fanning ilmiy va ta'limiy xususiyatlarini o'zlashtirish jarayonida o'zlashtirgan bilimlari va malakalarini aniqlashga yo'naltirilgan masalalarni qamrab olgan.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanidan

Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida tasviriy san’at mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish, Tasviriy san’atni o‘qitishning tarixiy rivojlanish bosqichlari, Uyg‘onish davrida tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi, qadimgi Yevropa va Rossiya va O‘zbekistonda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasining rivojlanishi, Kamoliddin Behzod va uning nafis san’at mакtabi, xattotlik san’ati, zamonaviy miniatyura asarlarining talqini, Boburiylar tasviriy san’at mакtabi, Samarqand miniatyura mакtabi, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtidan to bugungi kungacha tasviriy san’atni o‘qitish metodikasida erishilgan yutuqlar, tasviriy san’atni o‘qitishda malaka talablari, umumiy o‘rta mакtablarda tasviriy san’atni o‘qitishning maqsad va vazifalari, xorijiy mamlakatlarda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi, metodikaning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uзвиyligi, rasm chizishning metodik bosqichlari, tasviriy san’at turlari, janrlari hamda oqimlari to‘g‘risida bilmlar.

Tasviriy san’at tarixi fanidan

Ibtidoiy jamoa davri san’at tarixi, qadimgi dunyo san’ati, o‘rta asrlar san’ati, Uyg‘onish davri G‘arbiy Yevropa san’ati, XVII-XVIII asrlar jahon san’ati, XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Jaxon san’ati, XX asr jaxon san’ati, mustaqillik davri O‘zbekiston san’ati, tasviriy san’at tarixi, jahon tasviriy va amaliy bezak sanatining rivojlanishi, undagi tasviriy san’at uslublari, va mashhur rassomlarning badiiy asarlari va hayoti to‘g‘risida, jahon tasviriy sanatining rivojlanishi, tasviriy san’atda turli oqim va yo‘nalishlar, mashhur rassomlarning san’at namunalarin taxlil qilish.

Amaliy bezak san’ati fanidan

Amaliy san’at turlari, uning nazariyasi va tarixi, naqsh kompozitsiyasini tuzish qoidalari, kompozitsiya asoslari, simmetriya va asimmetriya, rapport, ritm, siluyet, nisbat, kolorit, kontrast, garmoniya, rang, amaliy san’atda ashyoshunoslik, kompozitsiya tuzishning uslubiy bosqichlari. Bo‘yoqlar tayyorlash va ular bilan ishslash texnologiyasi, oddiy naqsh elementlarini yoddan bilishi va ular yordamida turli naqsh kompozitsiyalari tuza olish, girix va gulli girix naqsh kompozitsiyalari, turli hajmli buyumlarni naqshlay olish, xalq ustalarining ijodini bilish. Ish qurollari, moslamalar, ularni ishga tayyorlash.

Qalamtasvir va Rangtasvir fanlaridan

Tasviriy san’atning paydo bo‘lishida qalamtasvirning o‘rni, qalamtasvir ishslashning qonun qoidalari va uslubiy bosqichlari, qalamda turli murakkablikdagi qo‘yilmalarni hajmdor qilib tasvirlash asoslari, konstruktiv qurilish, kompozitsiya qonuni, ufq chizig‘i, tayanch nuqtasi, tasviriy san’at texnikalari, akvarel bo‘yog‘ida natyurmort rangtasvirini ishslash qonun qoidalari va uslublari, rangshunoslik asoslari, natyurmortni tasvirlashda akvarel bo‘yog‘idan foydalanish, shakllar rangtasvirini ishslashda uning xarakterini xususiyatlarini ochib berish, inson qaddiqomatini tasvirlashda plastik anatomiyaning o‘rni, plastik anatomiyaning asosiy qoidalari: gavda tuzilishi, suyaklar birlashmalar, muskullar tizimi, bosh muskullari, qo‘l muskullari, oyoq muskullari, gavda muskullari va uning plastikasi.

Jahon va o‘zbek milliy mashhur usta rassomlar hayoti va ijodini bilish, dunyo tan olgan badiiy asarlarni tahlil qilish, tasviriy san’at tur va janri, tasviriy

san'atdagi oqim va yo'nalishlarni bir biridan farqlay olish. Taviriyl san'atga oid bilimlar, dunyoning ko'zga ko'ringan muzeylari va ko'rgazma zallarini bilish.

5110801-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchi talabalar uchun ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishlarini o'tkazish tartibi va baholash mezoni

Ixtisoslik fanlari bo'yicha magistraturaga kirish imtihoni "Yozma ish" va "Amaliy ish" shaklida o'tkaziladi. "Yozma ish" ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda uchtadan savol bo'ladi.

"Yozma ish" variantlarining birinchi savoli "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi", ikkinchi savoli "Tasviriy san'at tarixi", uchinchi savoli "Amaliy bezak san'ati" fanidan. Uchta nazariy savolning har biri 20 ballik, nazariy savollar bo'yicha jami **60 ballik** tizim asosida baholanadi.

"Amaliy ish" esa "Qalamtasvir va Rangtasvir" fanlaridan amaliy (ijodiy) bo'lib, "*Gips haykal bilan qo'yilgan natyurmort*" mavzularida amaliy (ijodiy) vazifa bajaradilar. Bajarilgan ijodiy ishda qalamtasvir (20 ball) va rangtasvir (20 ball) fanlari bo'yicha (jami 40 ball) tuzilgan mezonlar orqali baholanadi.

"Yozma ish" (60 ball) va "Amaliy ish" (40 ball) **Jami 100 ball** bilan baholanadi.

Yozma ishni o'tkazish uchun nazariy qismiga 1,5 soat, amaliy (ijodiy) qismiga 1,5 soat –jami 3 soat (akademik soat) vaqt beriladi.

Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan (nazariy) talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **17– 20 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, savolning mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **14– 16 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **11–13 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 - 10 ball** oralig'ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi amaliy (ijodiy) savol bo'yicha talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

Izoh: kirish imtihonida talabgorlar rangtasvirdan "Gips haykal bilan qo'yilgan natyurmort" mavzularida amaliy (ijodiy) vazifa bajaradilar. Bajarilgan ijodiy ishda qalamtasvir (20 ball) va rangtasvir (20 ball) fanlari bo'yicha (jami 40 ball) tuzilgan mezonlar orqali baholanadi.

Qalamtasvir fani bo'yicha baholash mezonlari:

- amaliy (ijodiy) ishda kompozitsiyaning yuzaga to'g'ri joylashtirilishi; tasvirda shakl nisbatlarining to'g'ri topilishi; tasvirlanayotgan narsalarning shakli, nisbati,

tuzilish xususiyatlarining to‘g‘ri ochib berilishi; buyumlarni tekislikka to‘g‘ri joylashtirilishi; fazoviy va chiziqli perspektivaning to‘g‘ri ifodalanganligi; ufq chizig‘ining to‘g‘ri topilganligi 17– 20 ball oralig‘ida baholanadi.

- amaliy (ijodiy) ishda kompozitsiyaning yuzaga joylashtirilishi; tasvirda shakl nisbatlarining topilishi; tasvirlanayotgan narsalarning shakli, nisbati, tuzilish xususiyatlarin ochib berilishi; buyumlarni tekislikka joylashtirilishi; fazoviy va chiziqli perspektivaning to‘g‘ri ifodalanganishi; ufq chizig‘ining to‘g‘ri topilganligida qisman (5 tagacha) xatolik mavjud bo‘lganda **14– 16 ball** oralig‘ida baholanadi;

- amaliy (ijodiy) ishda kompozitsiyaning yuzaga joylashtirilishi; tasvirda shakl nisbatlarining topilishi; tasvirlanayotgan narsalarning shakli, nisbati, tuzilish xususiyatlarin ochib berilishi; buyumlarni tekislikka joylashtirilishi; fazoviy va chiziqli perspektivaning to‘g‘ri ifodalanganishi; ufq chizig‘ining to‘g‘ri topilganligida 5 tadan ortiq xatoliklar mavjud bo‘lganda **11–13 ball** oralig‘ida baholanadi;

- amaliy (ijodiy) ishda kompozitsiyaning yuzaga joylashtirilishi; tasvirda shakl nisbatlarining topilishi; tasvirlanayotgan narsalarning shakli, nisbati, tuzilish xususiyatlarin ochib berilishi; buyumlarni tekislikka joylashtirilishi; fazoviy va chiziqli perspektivaning to‘g‘ri ifodalanganishi; ufq chizig‘ining to‘g‘ri topilganligida 10 tadan ortiq xatolik mavjud bo‘lganda **0 - 10 ball** oralig‘ida baholanadi.

Rangtasvirni baholash mezonlari

- amaliy (ijodiy) ishda rang munosabatlaridagi to‘g‘ri echim (iliq-sovuqlik, tus, refleks); kompozitsiyadagi muvozanat tamoyiliga rioya qilinganligi; kompozitsiyadagi ranglar uyg‘unligi (Kolorit)ga erishganlimgi; rangtasvirda ishslash texnikasi yuqoriligi; ishning tugallanganligi **17– 20 ball** oralig‘ida baholanadi.

- amaliy (ijodiy) ishda rang munosabatlaridagi to‘g‘ri echim (iliq-sovuqlik, tus, refleks); kompozitsiyadagi muvozanat tamoyiliga rioya qilinganligi; kompozitsiyadagi ranglar uyg‘unligi (Kolorit)ga erishganlimgi; rangtasvirda ishslash texnikasi yuqoriligi; ishning tugallanganishida qisman (5 tagacha) xatolik mavjud bo‘lganda **14– 16 ball** oralig‘ida baholanadi;

- amaliy (ijodiy) ishda rang munosabatlaridagi to‘g‘ri echim (iliq-sovuqlik, tus, refleks); kompozitsiyadagi muvozanat tamoyiliga rioya qilinganligi; kompozitsiyadagi ranglar uyg‘unligi (Kolorit)ga erishganlimgi; rangtasvirda ishslash texnikasi yuqoriligi; ishning tugallanganishida 5 tadan ortiq xatoliklar mavjud bo‘lganda **11–13 ball** oralig‘ida baholanadi;

- amaliy (ijodiy) ishda rang munosabatlaridagi to‘g‘ri echim (iliq-sovuqlik, tus, refleks); kompozitsiyadagi muvozanat tamoyiliga rioya qilinganligi; kompozitsiyadagi ranglar uyg‘unligi (Kolorit)ga erishganlimgi; rangtasvirda

ishlash texnikasi yuqoriligi; ishning tugallanganishida 10 tadan ortiq xatolik mavjud bo‘lganda **0 - 10 ball** oralig‘ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **0 dan 100 balgacha** baholanadi (86-100 ball – a’lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz).

ESLATMA: Kirish imtihoni jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo‘lgan abituriyentlar baholar e’lon qilingan kundan e’tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtihon komissiyasi va talaba o‘rtasida baholash ballari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro‘yxati: **Asosiy adabiyotlar:**

1. Abdirasilov S. “Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Ilm-ziyo”-2011 yil.
2. Abdirasilov S Tolipov N. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent Aloqachi, 2007 yil.
3. Abdirasilov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent Fan va texnologiya nashriyoti 2012 yil.
4. N.Abdullayev. “San’at tarixi” T-2/1 O‘quv qo‘llanma. «San’at» nashriyoti Toshkent 2001.
5. N.Oydinov. “O’zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. O’qituvchi 1997.
6. Xasanov R. Tasviriy san’at asoslari. O‘quv qo‘llanma. G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent 2009.
7. M.Ahmedov. "M.Nabiiev Hayoti va ijodi to‘g‘risida risola". Risola. G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent 2000.
8. B.B. Boymetov, Qalamtasvir. darslik “Musiqa” nashriyoti 2006.
9. B.B. Boymetov, “Plastik anatomiya”. O‘quv qo‘llanma “Ilm ziyo” nashriyoti 2007.
10. B.B. Boymetov, “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusha ko‘chirish”. O‘quv qo‘llanma “Ilm ziyo” nashriyoti 2007.
11. R. Sh. Xalilov. “Risunok”. Uchebnoye posobiye. Tashkent, “Navruz” - 2013.
12. X. E. Sultonov. “QALAMTASVIR” qo‘llanma. Toshkent – 2013.
13. M. Toshmurodov. “ChIZMATASVIR” qo‘llanma. «NOSHIR»Toshkent -2012.
14. Sultonov X. E. “ChIZMATASVIR” qo‘llanma. Toshkent -2014.
15. Sultanov X.E. Rangtasvir (Akvarelda natyurmort ishslash) O‘quv qo‘llanma T.:“VNESHINVESTROM” MChJ, 2019: -160 b.
16. Muratov X.X. “Qalamtasvir”, Toshkent, Ijod-print, 2020.
17. Sultonov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishslash) metodik qo‘llanma Toshkent, 2002. TDPU.
18. Sultanov X. E. “Chizmatasvir” metodik qo‘llanma. Toshkent -2014).

19. X. E. Sultanov. “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2020.
20. X.E. Sultanov, S.T.Sobirov, U.Sh. Xudoynazarova, R. Anqaboyev “Yosh musavvir” to‘garagi metodik qo‘llanma Toshkent-2016
21. Sultanov X. E. “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2020
22. Soibov T.Z. “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanma. TAQI, Toshkent-2007 .
23. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). Toshkent, 2002. TDPU.
24. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (2-qism). O’quv qo‘llanma, Toshkent, 2003. TDPU.
25. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san’at qisqacha lug‘ati.-T.: Qomuslar bosh tahririyyati, 1992.
26. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-moliya, 2007.
27. G’ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T.: Bilim, 2004.
28. S.M.Abdulhamidov, X.X.Muratov Tasviriy san’atda oqimlar, tur va janrlar. elektron darslik-2020.